PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO
BAHOLASH ILMIY-AMALIY
MARKAZI

# Umumta’lim maktabning 2024-2025 o‘quv yili 5-sinf o‘quvchilarining informatika va axborot texnologiyalari fanidan o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun savol va topshiriqlar

## II chorak 1-BSB (Demo)

**Jami:** [25 ball]

MS Paint dasturida quyida ko‘rsatilgan ketma-ketlikka amal qilib uycha rasmini chizing.

**1-topshiriq.** MS Paint dasturida 1600x800 piksel o‘lchamda (yoki, ixtiyoriy 2,25x1 nisbatda) yangi hujjat yarating. Uni `home` nomi ostida saqlang. [2 ball]

**2-topshiriq.** Line, Curved Line uskunalaridan foydalanib quyida berilgan tepaliklarni chizing va Brush uskunasi yordamida bo‘yang. [5 ball]



**3-topshiriq.** Line, Oval, Polygon uskunalaridan foydalanib yashil tepalik ustida ushbu uycha rasmini chizing va Brush uskunasi yordamida bo‘yang.
Poligon yordamida uychaning bitta derazasini chizgach, undan nusxa ko‘chirish mumkin. [10 ball]

PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO
BAHOLASH ILMIY-AMALIY
MARKAZI



**4-topshiriq.** Line uskunasi yordamida uychaning mo‘risini chizing va bo‘yang: [**3 ball**]



**5-topshiriq.** Tayyor bo‘lgan uychani ikkinchi tepalik ustiga ko‘chiring va boshqa rangga bo‘yang. [**5 ball**]

PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO
BAHOLASH ILMIY-AMALIY
MARKAZI



PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO
BAHOLASH ILMIY-AMALIY
MARKAZI

## Baholash mezoni

**Jami:** [**25 ball**]

Eslatma: Uycha va uning qismlarini qaysi rangga bo‘yash o‘quvchilarning ixtiyorida qoldirish mumkin.

**1-topshiriq.** MS Paint dasturida yangi hujjat yaritib, saqlay olsa – 2 ball;

**Jami:** [**2 ball**]

**2-topshiriq.**

a) Namunada ko‘rsatilgandek tepaliklar shakli chiza olsa va bo‘yasa – 5 ball;

b) Chizish va bo‘yashda kichik kamchiliklar bo‘lsa – 3-4 ball;

c) Chiza olmasa – 0 ball;

**Jami:** [**5 ball**]

**3-topshiriq.**

a) Namunada ko‘rsatilgandek uycha chiza olsa va bo‘yasa – 10 ball;

b) Uychaning barcha qism(deraza yoki eshik)larini chizish va bo‘yashda kichik kamchiliklar bo‘lsa – 7-8 ball;

c) Uycha va uning qismlarini bo‘yashda qo‘pol kamchiliklar bo‘lsa, chizilgan rasm namudada berilgan uychaga o‘xshamasa – 4-5 ball;

d) Chiza olmasa – 0 ball;

**Jami:** [**10 ball**]

**4-topshiriq.**

a) Uycha mo‘risini chiza olsa va bo‘yasa – 3 ball;

b) Chizish va bo‘yashda kichik kamchiliklar bo‘lsa – 2 ball;

c) Chiza olmasa – 0 ball;

**Jami:** [**3 ball**]

**5-topshiriq.**

a) Uychani ikkinchi tepalik ustiga ko‘chirsa va boshqa rangga bo‘yay olsa – 5 ball;

b) Uychani ikkinchi tepalik ustiga ko‘chirsa, biroq bo‘yay olmasa – 3 ball;

c) Topshiriqni umuman bajara olmasa – 0 ball;

**Jami:** [**5 ball**]

PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH ILMIY-AMALIY MARKAZI